

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SAYDALIYEVA MUXLISAXON BAXTIYOR QIZI

**O‘ZBEK TILIDAGI PRETSEDENT NOMLARNING
LINGVISTIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological
Sciences**

Saydaliyeva Muxlisaxon Baxtiyor qizi

О‘zbek tilidagi pretsedent nomlarning lingvistik tadqiqi 3

Сайдалиева Мухлисахон Бахтиёр кизи

Лингвистическое исследование прецедентных имен в узбекском языке 29

Saydalieva Mukhlisakhon Bakhtiyor kizi

Linguistic research of precedent names in the Uzbek language 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works. 62

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

SAYDALIYEVA MUXLISAXON BAXTIYOR QIZI

**O‘ZBEK TILIDAGI PRETSEDENT NOMLARNING
LINGVISTIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil1089 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudayberganova Durdona Sidikovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Saparniyazova Muyassar
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil " 5 " mart soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahar, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (12 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " 19 " fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil " 19 " fevral dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

A.M. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, f.f.b.f.d. (PhD)

Y.R. Odilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi natijasida lisoniy birliklarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu esa o'z navbatida pretsedent birliklar tadqiqiga yo'naltirilgan yangi ilmiy qarashlarning ham yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunga kelib pretsedentlik hodisasi va uning birliklari, xususan, pretsedent nomlar gumanitar sohalarida keng ko'lamda tadqiq etilmoqda, zamonaviy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida ular bilan bog'liq izlanishlar olib borilmoqda. Pretsedent nomlar har qanday millatning milliy-madaniy xususiyatlari va qadriyatlarini o'zida akslantira olishi, emotsional ta'sir ko'lami yuqoriligi, fikrni siqiq va sermazmun ifodalash vositasi ekanligi, o'zida katta hajmdagi axborotni saqlay olishi bilan til fondining muhim birligi bo'lib hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida pretsedent birliklarning nominativ vazifasidan tashqari turli uslubga xos matn va nutqiy vaziyatlarda voqelanishi bilan bog'liq lingvistik va ekstralingvistik hodisalar, bu birliklarning turli millatga mansub kishilar muloqotida hamda milliy lingvomadaniy hamjamiyat a'zolari lisoniy xotirasida tutgan o'rni kabi masalalar tadqiq qilingan. Xususan, pretsedent birliklarning lingvomadaniy birlik sifatidagi ahamiyati, publitsistik (mediadiskurs), siyosiy, diniy, reklama matnlaridagi vazifalari, muayyan ijodkorlar asarlari lingvopoetikasida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Bugun dunyo tilshunosligida pretsedent birliklar, xususan, pretsedent nomlar onomastika, leksikologiya, sintaksis singari tilshunoslikning alohida bo'limlari bilan bir qatorda, sotsiolingvistika, lingvopoetika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv va pragmatik tilshunoslik, psixolingvistika, assotsiativ tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik singari sintez yo'nalishlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikdan so'ng ilm-fan sohalarini rivojlantirish, shuningdek, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini oshirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, qabul qilingan qator farmon va qarorlar milliy tilshunosligimiz oldiga o'zbek tili tadqiqida dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan chuqur izlanishlar olib borish, bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy fundamental tadqiqotlar sonini oshirishni taqozo qilmoqda. "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash"¹ masalasi tilshunosligimiz oldiga o'zbek tilining milliy-madaniy birliklaridan biri sanalgan milliy pretsedent nomlar tadqiqiga ham jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligida pretsedent nomlarning badiiy matn yaratishdagi o'rni qator monografik va dissertatsion ishlarda ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ularning mukammal lingvistik tahlilini amalga oshirish, bevosita til sohibi bilan bog'liq lingvomadaniy, psixolingvistik, sotsiolingvistik kabi qator antropotsentrik xususiyatlariga e'tibor qaratish, bu nomlarning o'zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillari lisoniy xotirasida tutgan o'rni masalasiga qaratilgan maxsus tadqiqot ishlarini kengaytirish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6084-сон Фармони. Манба: <https://lex.uz/docs/5058351>

maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarb muammolardan biriga bag'ishlanganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi; 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazidagi masalalardan biri bo'lgan pretsedent nomlar tadqiqiga bag'ishlangan ilk tadqiqot Y.N.Karaulov nomi bilan bog'liq². Y.Naximova, Z.K.Axmetjanova, V.I.Zimin, V.L.Latisheva, V.Y.Arbuzova, A.V.Tereshchenko, Y.A.Fleysher kabi olimlar tomonidan pretsedent nom masalasi turli aspektlarda yoritilgan³. Shuningdek, tilshunos olimlar jamoasi: V.V.Krasnix, D.B.Gudkov, I.V.Zaxarenko, D.B.Bagayevalarning mazkur mavzuda olib borgan loyiha tadqiqotlari alohida e'tirofga loyiq⁴. Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida pretsedent nomlarni N.Podolskaya, Y.Kravchenko, R.Xanichev, Y.Li, L.Isakova, A.Zaxarova, T.Fedotova, T.Chub, M.Yakovenko eponimlik hodisasi (transonimizatsiya va deonimlashish) misolida;

² Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 216 с.; Shu muallif. Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – 263 с.

³ Ахметжанова З.К. О динамике изменения исследовательского подхода к изучению антропонимов // Вестник ПГУ, 2010. – № 1. – С. 21–25.; Зимин В.И. О национально-культурных особенностях устойчивых сравнений // Культурные слои во фразеологизмах и в дискурсивных практиках. – М., Языки славянской культуры, 2004; Иванова С.В. Культурологический аспект языковых единиц. – Уфа, 2002. – 114 с.; Латышева В.Л. Характеристика прецедентных феноменов как ядерный элементов национального языкового сознания (на материале русского и французского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2011 – 19 с.; Терещенко А.В. Прецедентные имена в современном русском и английском языках: статус, семантика, особенности функционирования // Вестник ТГПУ, 2016. – С. 76.; Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного: Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2014. – 164 с.; Арбузова В.Ю. Прецедентность в русском языке как лингвистический и культурный феномен (на материале научных эпистолярных текстов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Елец, 2007. – 24 с.; Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования.– Екатеринбург, 2011. – 276 с.; Хватова С.С. Этнокультурная специфика идентификации прецедентных имён носителями языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 18 с.

⁴ Bu haqda qarang: Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. Изд. 2-е, стереотип. – М.: Ленанд, 2020. – 152 с.; Захаренко И.В., Красных В.В., Гудков Д.Б., Багаева Д.В. Прецедентное имя и прецедентное высказывание как символы прецедентных феноменов / Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Ред. В.В.Красных, А.И.Изотов. – М.: Филология, 1997. Вып. 1. – 192 с.; Красных В.В. Система прецедентных феноменов в контексте современных исследований // Язык, сознание, коммуникация. – Вып. 2. – М.: Филология, 1997. – С. 5–12.; Красных В.В., Гудков Д.Б., Захаренко И.В., Багаева Д.В. Прецедентные феномены в лингвистике // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. – 1997. – № 3. – С. 62–75.

V.Maslova, O.Kirpicheva, Y.Vilinbaxova, V.Kovriga stereotip, etalon va ramz hodisalari misolida; D.Gudkov, V.Janayeva, V.Latisheva, B.Pseunova, E.Sarakayeva assotsiativlik masalasi bilan aloqadorlikda tadqiq etganlar⁵.

Milliy tilshunosligimizda ushbu mavzuga oid nazariy qarashlar xususida dastlab D.Xudoyberganovanning tadqiqotlarida ma'lumot berilgan⁶. D.Andaniyazova, N.Axmadjonov, D.Yuldasheva, M.Artikova, B.Jalilov kabi tilshunoslarning ishlarida pretsedent nomlar turli jihatlariga ko'ra tadqiq qilingan⁷. Shu bilan birga, pretsedent birliklarning assotsiativ, sotsiolingvistik, psixolingvistik xususiyatlari, o'zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillari lisoniy xotirasida tutgan o'rnini o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqot ishlari mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (o'zbek tili vazifaviy uslublari tahlili asosida)" mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pretsedent nomlarning lingvomadaniy, sotsiolingvistik, assotsiativ xususiyatlarini o'zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillarining kognitiv bazasi bilan aloqadorlikda aniqlashdan iborat.

⁵ Вилинбахова Е.Л. Модели репрезентации стереотипов в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 21 с.; Захарова А.Г. Лингвокогнитивное моделирование семантики производных слов, образованных от прецедентных имен (на материале английского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – 22 с.; Кирпичева О.В. Социокультурные антропонимические стереотипы (экспериментальное исследование) // Известия ВГПУ. Филологические науки, 2016. – С. 127–130; Коврыга В.М. Ономастический стереотип в репрезентации образа Англии // Региональная ономастика: проблемы и перспективы исследования: Сборник научных статей (по материалам III междунар. науч. конф.). – Витебск: ВГУ имени П.М. Машерова, 2022. – С. 370–373; Кравченко Е.В. Деонимизация иноязычных имён собственных в английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Владивосток: Дальневосточный гос. ун-т, 2004. – С. 166; Ли Я. Коннотативная система субстантива в функциональном аспекте (на материале российских СМИ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – 25 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978. – С. 199; Ханичев Р.З. Сопоставительная характеристика процессов деонимизации в русском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2004. – 14 с.; Чуб Т.В. Трансонимизация как явление языка и средство поэтики онимов // Λογος όνομαστική (Логос ономастики). – Донецк, 2006. – №1. – С. 121–126; Яковенко М.В. Трансонимизация как ономастическая универсалия // Λογος όνομαστική (Логос ономастики). – Донецк, 2009. – №1. – С. 6–8; Кузьменко Л.А. Национально-культурная специфика функционирования религиозного знания в языковом сознании русских и американцев (экспериментальное исследование): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: Тверский гос. ун-т, 2003. – 18 с.; Джанаева В.В. Лингвокогнитивные основы коммуникации: инокультурные прецедентные феномены: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Владикавказ, 2008. – 22 с.; Латышева В.Л. Характеристика прецедентных феноменов как ядерных элементов национального языкового сознания (на материале русского и французского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск, 2011. – 19 с.; Псеунова Б.Х. Антропонимы в современном американском молодежном сленге (психолингвистический анализ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2011. – 24 с.

⁶ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 118; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

⁷ Анданиязова Д.Р. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 160 б.; Юлдашева Д.М. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2022. – 225 б.; Ахмаджонов Н.З. Бадий услубда қўлланган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2022. – 154 б.; Жалилов Б. Ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги прецедент номлар таҳлили // ЎзМУ хабарлари. – Toshkent, 2020. – № 1. – Р. 216–219.; Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2021. – № 3 (38). – Б. 78–92.

Tadqiqotning vazifalari:

filologiyada pretsedent nomlarning tadqiq etilishi masalalari bo'yicha ilmiy qarashlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi farqli o'rinlarni aniqlash;

ism qo'yishda pretsedent nomlarning sotsiolingvistik omil sifatidagi o'rini asoslash;

pretsedent nom – deonim, pretsedent nom – tranonim, pretsedent nom – etalon, pretsedent nom – ramz jutliklari orasidagi bevosita aloqadorlik va bu juftliklardagi muammoli masalalarga oydinlik kiritish;

pretsedent nomlarning o'zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillari lisoniy xotirasida tutgan o'rini assotsiativ tajribalar asosida aniqlash;

til sohiblari turli nutqiy vaziyat va holatlarda pretsedent nomlar bilan aloqador assotsiatsiyalarni tiklash dinamikasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti turli uslublarga oid matnlarda qo'llangan pretsedent nomlar, shuningdek, sinaluvchilardan olingan javob reaksiyalaridan iborat.

Tadqiqotning predmetini pretsedent nomlarning sotsiolingvistik, lingvomadaniy, assotsiativ xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, statistik, lingvomadaniy tahlil metodlari, assotsiativ tajriba tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilshunosligida ilk marta pretsedent nomlar bilan unga yondosh onomastik stereotip, etalon, ramz kabi lingvistik hodisalar o'rtasidagi farqli jihatlar aniqlanib, pretsedent nomlarning atoqli otlarga taalluqli bo'lishi, til sohiblari orasida mashhurligi, ramziylik kasb etishi, shuningdek, o'ziga daxldor pretsedent birliklar bilan uzviy aloqada bo'lib, ularga ishora qilishi sotsiolingvistik va lingvomadaniy yondashuv asosida ochib berilgan;

pretsedent nomlarning onomastik fondga ko'plab subyektlarni bitta atoqli ot asosida nomlashga xizmat qiluvchi umumiy hamda yakkalab ajratishga xizmat qiluvchi individual nomlardan farqlanuvchi alohida onimlar tizimini hosil qiluvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi *Quyosh, Zuhra, Kumush, Tohir, Navoiy* nomlari misolida asoslangan;

pretsedent nomlarning mashhurligi, til sohiblariga yaxshi tanish ekanligi kabi lingvomadaniy belgilari asosida onomastik metafora, perifraza, deonimlashish, tranonimizatsiya kabi lingvistik hodisalar aktuallashtirishda muhim o'rin tutishi aniqlanib, brend nomlari sifatida qo'llanuvchi *Tefal, Jeep, Akfa, Thermos* singari atoqli otlarning xalq orasida keng ommalashishi kabi nolisoniy hodisalar pretsedentlikni yuzaga chiqaruvchi omillardan biri ekanligi isbotlangan;

pretsedent nomlarga oid assotsiatsiyalarda mazkur birliklar o'zbek lingvomadaniy hamjamiyatiga xos vatanparvarlik, mardlik, go'zallik, adolatparvarlik kabi milliy qadriyatlar uchun etalon sifatida tanlanishi, shuningdek, turki onimlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlar gender farqlar orqali ifodalanishi *Alpomish, Barchin, Kumush, Tohir, Zuhra, Shoahmad Shomahmudov* kabi milliy hamda *Azroil, Injil, Qur'on, Ka'ba, Buratino, Limuzin, Nobel, Parij, Romeo, Koshchey, Don Juan* kabi universal nomlardan olingan erkin assotsiativ tajriba natijalari asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili pretsedent nomlari bo‘yicha to‘plangan materiallar, ularning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar lingvomadaniyatshunoslik, onomastika, sotsiolingvistika, assotsiativ tilshunoslik uchun muhim zaruriy, ilmiy ma’lumot berishi hamda bu yo‘nalishga doir tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

o‘zbek tili pretsedent birliklarining o‘zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillari kognitiv bazasi va lisoniy xotirasida tutgan o‘rni lingvomadaniy nuqtayi nazardan ochib berilgan;

o‘zbek tili pretsedent birliklari bo‘yicha o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari asosida o‘zbek tili sohiblari lisoniy ongi haqida muayyan xulosalar olingani dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tanlangan mavzu doirasidagi muammoning to‘g‘ri qo‘yilganligi, tadqiq obyektiga yondashuv va nazariy ma’lumotlar sifatida ishonchli manbalarga tayanilganligi, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarga xos usullardan foydalanilganligi, tahlilga tortilgan assotsiativ tajriba materiallarining asosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tili sohiblarining pretsedent nomlarga aloqador lingvomadaniy, assotsiativ xususiyatlariga doir mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitganligi hamda antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlarida milliy-madaniy birliklarga doir ilmiy izlanishlarda nazariy asos vazifasini o‘tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Onomastika”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Lingvomamlakatshunoslik”, “Assotsiativ tilshunoslik”, “Sotsiolingvistika”, “Etnopsixolingvistika” kabi maxsus kurslarni o‘qitishda; ushbu maxsus kurslarga oid darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O‘zbek tilidagi pretsedent nomlarning lingvistik tadqiqi mavzusidagi tadqiqot ilmiy natijalari asosida:

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-78 raqamli “Hozirgi globallashuv davrida o‘zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (o‘zbek tili vazifaviy uslublari tahlili asosida)” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida o‘zbek tilshunosligida ilk marta pretsedent nomlar bilan unga yondosh onomastik stereotip, etalon, ramz kabi lingvistik hodisalar o‘rtasidagi farqli jihatlarini aniqlashga; pretsedent nomlarning atoqli otlarga taalluqli bo‘lishi, til sohiblari orasida mashhurligi, ramziylik kasb etishi, shuningdek, o‘ziga daxldor pretsedent birliklar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ularga ishora qilishi sotsiolingvistik va lingvomadaniy yondashuv asosida ochib berishga; pretsedent nomlarning onomastik fonda ko‘plab subyektlarni bitta atoqli ot asosida nomlashga xizmat qiluvchi umumiy hamda yakkalab ajratishga xizmat qiluvchi individual nomlardan farqlanuvchi alohida onimlar tizimini hosil qiluvchi lingvomadaniy birliklar ekanligi *Quyosh, Zuhra, Kumush, Tohir, Navoiy* nomlari misolida asoslashga oid ilmiy-nazariy xulosalardan loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 11-dekabrda 3/1255-2744-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihada pretsedentlik, intertekstuallik, deonimlik, transonimizatsiya, etalon, stereotip tushunchalarini izohlashda mazkur tadqiqot ishi zaruriy manba vazifasini o‘tagan. Loyiha doirasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va

folklori instituti tomonidan nashr etilgan 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 1–5-jildlar)da keltirilgan yangi tilshunoslikka oid terminlarning izohini boyitishda foydalanilgan.

Shuningdek, 2021–2022-yillarda O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan IL-21071156 raqamli “Antropotsentrik tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati”ni tuzish va nashr qilish (veb-sayti va mobil ilovasini yaratish)” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida tayyorlangan “Antropotsentrik tilshunoslik: tushuncha va terminlar” nomli monografiyaning “Cho‘lpon asarlarida intertekstuallik”, “Madaniyat kodlari xususida” nomli qismlarini yozishda, xususan, pretsedent nomlarga oid assotsiatsiyalarda mazkur birliklar o‘zbek lingvomadaniy hamjamiyatiga xos vatanparvarlik, mardlik, go‘zallik, adolatparvarlik kabi milliy qadriyatlar uchun etalon sifatida tanlanishi, shuningdek, turki onimlarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlar gender farqlar orqali ifodalanishi *Alpomish, Barchin, Kumush, Tohir, Zuhra, Shoahmad Shomahmudov* kabi milliy hamda *Azroil, Injil, Qur‘on, Ka‘ba, Buratino, Limuzin, Nobel, Parij, Romeo, Koshchey, Don Juan* kabi universal nomlardan olingan erkin assotsiativ tajriba natijalari asosida dalillashda foydalanildi. Natijada loyihada pretsedentlik, intertekstuallik, allyuziya, stereotip hodisalari talqiniga oid nazariy qarashlar boyidi.

O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma‘rifat” telekanalining “Telemarafon” dasturi ssenariysini tayyorlashda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (O‘zMTRK “Madaniyat va ma‘rifat” telekanali davlat muassasasining 2024-yil 26-fevraldagi 01-14/46-son ma‘lumotnomasi). Ushbu dasturda tadqiqotchining o‘zi ishtirok etib, pretsedent nomlarning mashhurligi, til sohiblariga yaxshi tanish ekanligi kabi lingvomadaniy belgilari asosida onomastik metafora, perifraza, deonimlashish, transonimizatsiya kabi lingvistik hodisalar aktuallashuvida muhim o‘rin tutishi haqida to‘xtalib, brend nomlari sifatida qo‘llanuvchi *Tefal, Jeep, Akfa, Thermos* singari atoqli otlarning xalq orasida keng ommalashishi kabi nolisoniy hodisalar pretsedentlikni yuzaga chiqaruvchi omillardan biri ekanligini ochib bergan. Natijada pretsedent nomlarning o‘zbek xalqining ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayotidagi ahamiyati haqida tushunchalar berilgan, shuningdek, pretsedent nomlar haqidagi yangi bilimlar keng jamoatchilikka yetkazilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, ulardan 6 tasi respublika jurnallarida hamda 1 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 154 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan; tadqiqot natijalarining joriylanishi, e‘lon qilingan ishlar, ishning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Pretsedent nomlarning tilshunoslikda o‘rganilishi”** deb nomlangan. Ushbu bobda dunyo va o‘zbek tilshunosligida pretsedent nomlar va ularning o‘rganilishi, hodisa tadqiqidagi muammoli vaziyatlar singari masalalar yoritilgan. Bobning birinchi fasli **“Dunyo tilshunosligida pretsedent nomlarning o‘rganilishi”** deb nomlanib, ushbu faslda dunyo tilshunosligida pretsedent birliklar nazariyasi yuzaga kelishi hamda pretsedent nomlar bilan bog‘liq ilmiy qarashlar haqida so‘z boradi.

“Pretsedent” so‘zi lotincha *“praecedens”* so‘zidan olingan bo‘lib, “oldinda yuruvchi”, “avvalgi” ma‘nolarini bildiradi. Ushbu so‘z rus tilida dastlab 1935–1940-yillarda D.N.Ushakov tahriri ostida nashr qilingan “Rus tilining izohli lug‘ati”da izohlanadi⁸. Umuman, *pretsedent* so‘zi rus tilidagi qator tor sohaviy lug‘atlarda “namuna”, “andoza”, “qolip” ma‘nolarida tavsiflanadi va qo‘llanadi. Fanga ilk bor “pretsedent birlik” atamasini olib kirgan Y.N.Karaulov pretsedent matnlarni “1) u yoki bu shaxsga bilish va hissiy munosabatlarida juda ahamiyatli sanaluvchi; 2) o‘ta shaxsiy xarakterga ega, ya‘ni shu shaxs atrofidagi zamondoshlari, shuningdek, o‘tmishini ham qamrab oluvchi katta doiraga yaxshi tanish bo‘lgan hamda 3) ushbu til sohibining diskursida qayta-qayta murojaat etiluvchi”⁹ birlik sifatida tavsiflaydi.

I.Zaxarenko, V.Krasnix, D.Gudkov va D.Bagayevalar Y.Karaulovning “pretsedent matn”ga keltirgan ta‘rifi asnosida aynan pretsedentlik hodisasini umumiy tarzda tushunish ilmiy haqiqatga yaqinligi, olim “matn” tushunchasini keng ma‘noda qo‘llagani, bu termin ostida barcha pretsedent birliklar uchun umumiy belgilar sanab o‘tilganini qayd etadilar. Shuningdek, ular pretsedent birliklar ma‘lum til vakillarining barchasiga taalluqli bilim va tasavvurlar majmuyini o‘zida ifoda etuvchi kognitiv bazaning asosiy (yadroviy) elementi ekanini ta‘kidlaydilar¹⁰. “Pretsedent matn” tushunchasi ortidan V.G.Kostomarov va N.D.Burvikovalar tomonidan “pretsedent jumla” (1994), Y.Y.Proxorov tomonidan “pragmorefleks” (1996), D.B.Gudkov tomonidan “pretsedent nom” (1996), V.V.Krasnix va boshqalar tomonidan “pretsedent fenomen” va “pretsedent vaziyat” (1997) tushunchalari tilshunoslik faniga kirib keldi¹¹.

V.L.Latisheva olimlar tomonidan bu hodisa turlicha talqin etilishi va turli nomlar bilan atalishini qayd etadi. Y.Naximova ham ushbu hodisa, uning birliklari turli aspektlarda tadqiq etilgani va bu ishlarda intertekstema (intertekst), pretsedent fenomen (pretsedent nom, pretsedent-madaniy belgi, pretsedent konsept), tarixiy (ijtimoiy,

⁸ <https://dic.academic.ru/contens.nsf/ushakov/>

⁹ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 216, 218.

¹⁰ Захаренко И.В., Красных В.В., Гудков Д.Б., Багаева Д.В. Прецедентное имя и прецедентное высказывание как символы прецедентных феноменов // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: Филология, 1997. Вып. 1. – С. 82.

¹¹ Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. – М.: Ленанд, 2020. – С. 24.

siyosiy) yoki badiiy (teatral) metafora; matniy reminissensiya, logoepistema, vertikal kontekst elementi; antonomaziya va allyuziya (ritorik trop va figuralarning turi sifatida), turdosh otni ifodalash uchun qo‘llangan atoqli ot (onim) kabi terminlarga murojaat qilingani haqida qayd etib o‘tadi¹². Y.Fleysher fanga pretsedent nom tushunchasi kirib kelgunga qadar tilshunoslikda u bilan bog‘liq qarashlar onomastik tadqiqotlar doirasida “to‘liq bo‘lmagan apellyatsiya” birikmasi ostida o‘rganilganini, bunda matn tarkibida kelgan onim atoqli otga tegishli vazifalarni, ya’ni matnda keltirilgan antroponimni emas, balki metafora orqali shu nom egasiga xos asosiy jihatga ega kishilarni umumlashtirib ishora qilganini ta’kidlaydi¹³.

D.Gudkovning fikricha, pretsedent nomlar ongning lisoniy, ya’ni asosida kognitiv bilimlar majmuyini tashkil etuvchi qatlamiga tegishlidir. Bunday nomlar lisoniy shaxsning kognitiv bazasida hamda lingvomadaniy hamjamiyatning jamoaviy ongida turli xil ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin: “Pretsedent nomning o‘ziga xosligi diskursda namoyon bo‘ladi va bu nomlarning nutqda qo‘llanishi bilan yuzaga chiqadi”¹⁴.

Pretsedent birliklar bo‘yicha fundamental tadqiqotni amalga oshirgan V.V.Krasnix “Pretsedent nomlar – kognitiv bazaning eng muhim yadroviiy elementlaridan biridir” deb hisoblaydi. Tilshunos ularning kognitiv bazada saqlanish shakliga to‘xtalar ekan, pretsedent nom va pretsedent jumalarning kognitiv bazada tutgan o‘rni pretsedent matn va pretsedent vaziyatnikidan farq qilishini ta’kidlaydi.

Pretsedent nomlar ma’lumlik darajasiga ko‘ra farqlanadilar. D.B.Gudkovning qarashlariga ko‘ra, bu birliklar *avtopretsedentlar*, *sotsial (ijtimoiy) pretsedentlar*, *milliy pretsedent birliklar va universal (internatsional) pretsedent birliklarga* ajraladi. Olim avtopretsedentlik hodisasini yakka shaxs ongida olamning aks etishi bilan tushuntiradi¹⁵. Yuqoridagi taqsimlanishdan biroz farqli talqin S.S.Xvatovada kuzatiladi: olima pretsedent fenomenlarni ikkiga – *avtopretsedent* va *ijtimoiy pretsedentlarga* ajratadi va ijtimoiy pretsedentlarning o‘zini ham milliy pretsedentlar, xalqaro va madaniy pretsedentlar singari ichki turlarga taqsimlaydi¹⁶. Yuqoridagi tavsifdagidan farqli jihat *madaniy pretsedentlar* bo‘lib, olima bu guruhga yagona madaniyatga, dinga birlashuvchi turli lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga xos pretsedent birliklarni kiritadi. Yevropa madaniyatiga oid *Arastu*, *Gerakl*, *Kolumb*; sharq madaniyatiga xos *Yan Chju*, *Budda*, *Konfutsiy*, *Gandi* yoki islom madaniyatiga oid *Umar Hayyom*, *Qur‘on*, *al-Xorazmiy*, *Umar r.a.*, *Jabroil*, *Bilol* onimlarini ushbu hodisaga misol tariqasida keltirish mumkin.

Turkiy tilshunoslik vakillarida ham pretsedent nomlarga qiziqish katta ekanligini kuzatish mumkin. Qozoq tilida pretsedentlik hodisasi T.Januzaqov, I.Kenesbayev, G.B.Madiyeva, Q.Rysbergen, G.Ihsangaliyeva, S.Imonberdiyeva, G.Qajig‘aliyeva, B.Abdixanova va boshqalarning ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan¹⁷. T.Januzaqovning

¹² Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования: Монография. – Екатеринбург: УрГПУ, 2011. – С. 9–10.

¹³ Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного: Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2014. – С. 45–46.

¹⁴ Гудков Д.Б. Ко‘rsatilgan monografiya. – В. 15.

¹⁵ Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. – М.: Ленанд, 2020. – С. 26.

¹⁶ Хватова С.С. Этнокультурная специфика идентификации прецедентных имён носителями языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – С. 9.

¹⁷ Bu haqda qarang: Снасапова Г.Ж., Нұрсұлтанқызы Ж., Оралбаева Г.С. Қазақ және ағылшын тілдеріндегі кейбір прецедент есімдердің лингвомәдени ерекшеліктері // <https://bulletin-philology.ablaikhan.kz/index.php/j1/article/view/191/141>

tadqiqotlarida badiiy asar personajlari nomlari til sohiblari tomonidan tipik, umumlashtiruvchi obraz sifatida qabul qilinib, ularning atoqli otdan turdosh otga ko'chish xususiyati (deonimlashish) boshqa onomastik maydondagi atoqli otlarga nisbatan faolroq ekanligi ta'kidlanadi¹⁸. G.Spasanova, J.Nursultanqizi, G.Oralbayevalar universal pretsedent nomlarning ramziyligi jihatiga e'tibor qaratadilar¹⁹.

Z.Biktagirova, G.D.Xaziyevalar maqolasida turk va tatar tillarida Qur'on syujetlari va diniy motivlarga tayanilgan onomastik komponentli maqollarda aynan bir xil personajlar uchrashini qayd etadilar²⁰. Maqola mualliflari maqol va matallarda kelgan har qanday onim ham pretsedent bo'lavermasligini alohida ta'kidlaydilar. Masalan, turk tilidagi "*Her kadin saki çığner, ama Ayşe ablam gibi patlatamaz*" (*Hamma xotin saqich chaynashi mumkin, lekin hech kim Oysha opa singari pufak shishirib paqillata olmaydi*) maqolidagi *Ayşe abla* onimi Muhammad s.a.v.ning qizlari emas, uning diniy motivlarga aslo aloqasi yo'q. Ushbu maqolda *Oysha* ismi xotin-qizlargagina xos og'ir xarakterga ishora qiladi.

Tadqiqotning "***O'zbek tilshunosligida pretsedent nomlarning tadqiqi***" deb nomlangan ikkinchi faslida o'zbek tilshunosligida pretsedent nomlar tadqiqi haqida fikr yuritilgan. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida antropotsentrik yondashuvning takomillashuvi matnning lingvomadaniy mazmunini shakllantiruvchi til birliklarini, shu jumladan, pretsedent birliklarni ham har tomonlama tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Bunday ishlar sirasiga D.Xudoyberganova, D.Andaniyazova, D.Yuldasheva, N.Ahmadjonov, M.Raximova, M.Saparniyazova, H.Bozorovlarning dissertatsiya ishlarini kiritish mumkin²¹. Shuningdek, D.Lutfullayeva, M.Saidova, U.Qo'ziyevning tadqiqotlarida ham pretsedent nomlarga oid fikrlar beriladi²². B.Jalilov, M.Artikova, R.Shukurov, D.To'rayevalarning mavzuga aloqador qator maqolalari ham e'lon qilindi²³.

¹⁸ Bu haqda qarang: Мадиева Г.Б. Ономастическое пространство современного Казахстана: структура, семантика, прецедентность, лемматизация: Автореф. дисс. д-ра. филол. наук. – Алматы, 2005. – С. 46.

¹⁹ Снасапова Г.Ж., Нұрсұлтанқызы Ж., Оралбаева Г.С. Снасапова Г.Ж., Нұрсұлтанқызы Ж., Оралбаева Г.С. Қазақ және ағылшын тілдеріндегі кейбір прецедент есімдердің лингвомәдени ерекшеліктері // <https://bulletin-philology.ablaikhan.kz/index.php/j1/article/view/191/141>

²⁰ Биктагирова З.А., Хазиева-Демирбаш Г.С. Личные имена в татарских и турецких пословицах и поговорках // Вопросы современной науки и практики. – Тамбов, 2012. – №2. – С. 271–274.

²¹ Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.; Анданиязова Д.Р. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 160 б.; Юлдашева Д.М. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2022. – 225 б.; Ахмаджонов Н.З. Бадий услубда қўлланган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, ФарДУ, 2022. – 154 б.; Рахимова М.А. Ўзбек тилида эссе матнларининг лингвостилистик ва лингвокультурологик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – 160 б.; Saparniyazova M. O'zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2023. – 228 b.; Bozorov N.X. O'zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD)... diss. – Termiz, 2023. – 164 b.

²² Саидова М., Кўзиев У. Лингвокультурология: Услубий қўлланма. – Наманган, 2017. – Б. 96; Антропоцентрик тилшунослик: тушунча ва терминлар: Жамоавий монография. – Тошкент: "Tubo nashr", 2022. – Б. 165–171.

²³ Жалилов Б. Ўзбек, рус ва англиз тилларидаги прецедент номлар таҳлили // ЎЗМУ хабарлари. – Toshkent, 2020. – №. 1. – P. 216–219.; Жалилов Б. "Прецедент" термини ва унинг турли луғатлардаги изохи // Foreign Languages in Uzbekistan. – Tashkent, 2021. – №. 3. – P. 31–40; Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2021. – № 3 (38). – Б. 78–92; Шукуров Р., Ахмаджонов Н. Жаҳон ва ўзбек тилшунослигида прецедент номларнинг тадқиқи // Ўзбекистонда фанлараро инновациялар ва илмий тадқиқотлар журналі. – Фарғона, 2023. – № 15 (20.01.2023). – Б. 218–224.

O‘zbek tilshunosligida pretsedent birliklar bilan bog‘liq dastlabki ilmiy qarashlarni D.Xudoyberganovaning tadqiqotlarida kuzatamiz. Pretsedent nomlarga tilshunoslik termini sifatida quyidagicha ta’rif berilgan: “Pretsedent nomlar – mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig‘indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar”²⁴. Olima o‘z ilmiy qarashlarida pretsedent birliklar lingvomadaniyatshunoslikning muhim tadqiq obyektlaridan ekanligi, til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlangan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan nomlar, barqaror so‘z birikmalari, jumlar, matnlar singari unsurlarni qamrab olishini qayd etadi. Tilshunos olim pretsedent nomlar onomastik ko‘lamga kiruvchi; o‘zida ijtimoiy-tarixiy, madaniy, geografik, falsafiy, siyosiy, ma’rifiy, adabiy axborotni saqlovchi potensial birliklar ekanligini misollar vositasida dalillaydi²⁵. Olimaning “Til. Tafakkur. Madaniyat” nomli risolasida pretsedent nomlarning ikki muhim xususiyati: mashhurlik, ya’ni til sohiblari lisoniy xotirasidan mustahkam o‘rin olish hamda ramziylik, ya’ni muayyan sifatlar jamuljaming namunasi bo‘lishi ta’kidlanadi.²⁶ D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning hammualliflikdagi “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati”da keltirilgan badiiy matnlarda qo‘llangan onomastik birliklar (ayni damda pretsedent nomlar ham) *talmeh*, *tajnis*, *tashxis*, *tashbeh* kabi ko‘plab badiiy san’atlar; *apostrofa*, *hushohanglik*, *alliteratsiya* kabi uslubiy vositalarni yuzaga keltirishda muhim lingvopoetik vosita maqomiga ega ekanliklari ta’kidlanadi²⁷.

D.Andaniyazova o‘z ishlarida o‘zbek nasri va nazmida pretsedent onimlarning lingvopoetik xususiyatlarini batafsil yoritib o‘tadi, ularning badiiy matndagi vazifalari, denotativ va konnotativ qo‘llanishi, ularning allyuziv nom bo‘lib kelishi va shu kabilar borasida qimmatli fikrlarini keltirib o‘tadi²⁸.

D.Yuldashevaning dissertatsiyasida bolalarga xos matnlardagi pretsedent birliklar ham tahlil qilingan²⁹. N.Axmadjonovning dissertatsiyasi badiiy uslubda qo‘llangan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqiga qaratilgan³⁰. H.Bozorov “O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertatsiyasida o‘zbek xalq ertaklarida keltirilgan pretsedent nomlar milliy pretsedent nomlar fondini boyituvchi manba sifatida qaraladi³¹. M.Saparniyazovaning dissertatsiyasida ham pretsedent nomlar ergonimlar hosil qiluvchi manba sifatida ko‘rsatiladi³².

Milliy tilshunosligimizda pretsedent nomlarga katta qiziqish paydo bo‘lgani bilan bir qatorda tadqiqotchilar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan ba’zi kamchiliklar ham

²⁴ Худойберганова Д. Лингвокултурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 35.

²⁵ Худойберганова Д.С. Ко‘rsatilgan dissertatsiya. – В. 148.

²⁶ Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият: Илмий рисола. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 40.

²⁷ Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – Б. 5.

²⁸ Анданиязова Д. Ономастик бирликларнинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – Б. 208.

²⁹ Юлдашева Д.М. Ко‘rsatilgan dissertatsiya. – В. 172.

³⁰ Ахмаджонов Н. Бадий услубда қўлланган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. – Фарғона, 2022. – Б. 154.

³¹ Bozorov H.X. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (Phd) ... diss. – Termiz, 2023. – В. 84.

³² Saparniyazova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2023. – В. 228.

kuzatilmogda. “Antropotsentrizmning tilshunoslikda alohida paradigma sifatida shakllanishi” nomli maqolada ustoz tilshunos N.Mahmudov tomonidan ta’kidlangan va tanqid ostiga olingan antropotsentrik paradigma doirasidagi ilmiy ishlarda “huda-behuda terminlar yasash va kerak-nokerak ularni qo’llash”³³ muammosi milliy tilshunosligimizda pretsedentlik hodisasi tadqiqi masalasida ham yaqqol ko’zga tashlanmogda. Xususan, N.Axmadjonov pretsedent nom va poetonimlarning badiiy asarlardagi munosabati mohiyatini ochib berishda har ikki hodisani chalkashtirib, biri o’rnida boshqasi bilan adashtirgani seziladi. Bizningcha, badiiy uslubga xos har qanday poetonim ham pretsedent nom bo’lolmaydi, badiiy asardagi har qaysi personaj yoki makon nomi ham mashhurlikka erishmaydi. Shuningdek, ba’zi ishlarda pretsedent nom o’rniga “pretsedent ism” yoki “pretsedent ot” (D.Yuldasheva) birikmalarining talqin etilishi; pretsedent birliklardan biri bo’lgan pretsedent jumlagi nisbatan “pretsedent bayonot” (R.Shukurov va N.Axmadjonov), pretsedent ibora (N.Ahmadjonov) “pretsedent aytim” (B.Jalilov), “pretsedent ifoda” (M.Artikova); pretsedent vaziyatga nisbatan “pretsedent hodisa” (M.Artikova) singari birikmalar qo’llanayotgani tilshunoslik terminologiyasi nuqtayi nazaridan ijobiy hodisa sifatida baholanmaydi.

Dissertatsiyaning “**Pretsedent nomlarning sotsiolingvistik, lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobi pretsedent nomlarning ism qo’yishdagi motiv sifatida namoyon bo’lishi, deonimlashish va transonimizatsiya hodisalaridagi ishtiroki, pretsedent nomlarning onomastik stereotip, ramz va etalon sifatidagi lingvomadaniy hamda sotsiolingvistik xususiyatlari tadqiqiga bag’ishlangan. Bobning “*Ism qo’yishda sotsiolingvistik omillar va pretsedentlik hodisasi*” deb nomlangan birinchi faslida o’zbek antroponimikasida pretsedent nomlarning vazifalari xususida so’z boradi. Kishilik jamiyati shakllanishi barobarida bu jamiyat vakillarini turli ismlar bilan farqlash ehtiyoji ham paydo bo’ldi. E.Begmatov ism qo’yish odati to’g’risida to’xtalar ekan, buning obyektiv ehtiyoj ekanligi, ismlar onimlarning eng qadimiy turlaridan biri ekanligini ta’kidlab, “keyinchalik yuzaga kelgan va rasmiy tus olgan familiyalar, laqablar, otaismlar, ajdodiy (patronimik) nomlar va ularning turli-tuman ko’rinishlari... ana shunday hayotiy ehtiyojning qonuniy mahsulidir”³⁴, deb ta’kidlaydilar.

E.Begmatov o’zbek (shuningdek, turkiy tillar) antroponimiyasini davrlashtirishda quyidagi tasnifni keltiradi: 1. *Islomgacha bo’lgan qadimiy davr*. Totemistik, animistik, fetish, kosmogonik va boshqa turli xil qadimiy diniy ishonchlar motivi. 2. *Islom dini qabul qilingandan XX asrgacha bo’lgan davr*. Bu davrda ism motivlari islom dini tushuncha va tamoyillariga asoslandi, islomgacha bo’lgan turkiy ismlarning ayrimlari bu davrning tasavvuri va qarashlari ta’sirida o’zgarishlarga uchradi, siqib chiqarildi³⁵. 3. *XX asr davri*. Bu davrda (XX asrning 30-yillaridan boshlab) otatism, familiya paydo bo’ldi, o’zbek ism berish tamoyillari ism – familiya – otatism uchligi asosida berila boshlandi. Arabcha o’zlashmalar qisqarib, yangi ismlar paydo bo’ldi. Ism berish jarayonida diniy motivlardan ko’ra estetik, ilmiy tushunchalarni ifodalovchi ismlar soni ortdi³⁶.

³³ Bu haqda qarang: Махмудов Н. Антропоцентризмнинг тилшуносликда алоҳида парадигма сифатида шаклланиши //Антропоцентриқ тилшунослик: тушунча ва терминлар: Жамоавий монография. – Тошкент: Tubo nashr, 2022. – Б. 20.

³⁴ Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 3.

³⁵ Жураева И. Номинативные функции антропонимов (на материале английского, узбекского и русского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2012. – С. 57–58.

³⁶ Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 147–148.

Biz o'zbekcha ism qo'yish bilan bog'liq holatlarni tahlil qilib, pretsedentlik motivi asosida ism berishni quyidagi guruhlariga ajratishni ma'qul topdik:

- diniy motivlardagi pretsedent onimlar (teonimlar (Allohning 99 ismi, payg'ambarlarning ismlari) asosida berilgan ismlar;
- real tarixiy shaxslar (milliy qahramonlar, olim, yozuvchi va shoirlar, davlat arboblari, siyosiy figuralar, mashhur qo'shiqchi, san'atkor, sportchi, ijtimoiy faol jamiyat a'zolari va h.k.) ismi asosida berilgan ismlar;
- badiiy manba qahramonlari ismlari (mif, folklor va badiiy adabiyot namunalari qahramonlari, shuningdek, ekranlashtirilgan obraz va personajlar) asosidagi ismlar.

Alisher Navoiy shaxsiga cheksiz hurmat va uning asarlari qahramonlariga ideal sifatida intilish xalq orasida *Alisher, Guli, Farhod, Shirin* ismlarining o'tgan asrlarda keng ommalashishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda Navoiy nomi bilan bog'liq juda ko'plab geografik obyektlarning mavjudligi ham bejiz emas. Adabiyot va san'at asarlari asosida ommalashgan ismlar sirasiga Abdulla Qodiriy, Cho'lpon romanlarining personajlari nomlarini kiritish mumkin. Birgina "O'tkan kunlar" romanining 1969-yilda ekranlashtirilishi xalq orasida *Otabek va Kumush* nomlari sonining keskin ortishiga sabab bo'lgan. *Anvar, Ra'no* ismlarining ommalashishida ham personajlar mashhurligiga, ularning xalq orasida ijobiy qabul qilinganiga tom ma'noda ishora bor. Qodiriy asarlari qahramonlari ismlari shunchaki tasodifiy ismlar emas, bu haqda D.Xudoyberganova va D.Andaniyozovalar o'z maqolalarida alohida ta'kidlaydilar³⁷.

O'zbek ismlari qo'yilishi bilan bog'liq holat yuzasidan Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra³⁸, 2023-yilda o'g'il bolalarda Muhammadali, Mustafo, Abdulloh, Muhammad, Muhammadyusuf; qiz bolalarda Soliha, Muslima, Yasmina, Imona, Shukrona ismlari chaqaloqlarga eng ko'p qo'yilgan ismlar sifatida qayd etilgan. Mazkur ismlar tahlil qilinsa, *Muhammad* va *Muhammad* komponentli ismlar so'nggi o'nyillikda ham o'z mashhurligini yanada mustahkamlaganini kuzatamiz. Qizlar orasida pretsedent nomga murojaat qilinishi o'g'il bolalar ismlariga nisbatan passiv. *Hadicha* (aslida ismning "Xadicha" shaklida yozilishi to'g'ri) ismining arabcha lug'aviy ma'nosi "chala tug'ilgan"³⁹ bo'lsa-da, bu ism ota-onalar tomonidan islom dunyosida mashhur ayol, Muhammad s.a.v.ning birinchi ayollari, Fotima r.a.ning onalari sharafiga beriladi. *Fotima* ismi esa tarixiy pretsedent shaxsiga taqlidan egiz juftiga ega bo'lmagan yakka qiz chaqaloqlarga berilishi so'nggi yillarda sezilarli oshdi, 2021-yildan boshlab bu ism qizlarga eng ko'p berilayotgan ismlar ro'yxatidan joy olib kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarida chaqaloqlarga siyosiy motivli pretsedent nomlardan ism tanlanishi bilan bog'liq qiziqarli holatlar ham bor. Masalan, uchta egizak chaqaloqlarga o'zbeklar orasida so'nggi yillarda davlat rahbarlarining ismi, familiyasi va otasining, shuningdek, ularning yaqinlari ismlarini berish holati sezilarli oshgan. Birinchi Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov sharafiga farzandlarini *Islom, Abdug'ani* va *Karim*, amaldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich

³⁷ Худойбергано́ва Д., Андания́зова Д. Абдулла Қодирий ва номлар бадийяти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – №3. – Б. 25–30.

³⁸ <https://m.kun.uz/news/2023/06/23/eng-mashhur-familiya-baxtiyorov-eng-mashhur-ismlar-muhammadali-va-soliha-?ysclid=m1elke6lzf792071820>

³⁹ <https://ismlar.com/name/Hadicha>

Mirziyoyev sharafiga *Shavkat, Miromon* va *Mirziyo* ismlari bergan oilalar ham son jihatidan birmuncha ko‘pchilikni tashkil etadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Pretsedent nomlar deonimlashishining lingvomadaniy va sotsiolingvistik aspekti”** deb nomlanib, bu bo‘limda deonim va tranonimlar yuzaga kelishida pretsedent nomlarning ishtiroki xususida so‘z yuritiladi. Pretsedent nomlar turli kontekstlarda bir xil bo‘lmagan konnotatsiyalarni hosil qiladi, bunda ular umumiy ikkilamchi – tavsiflovchi (ekspressiv-baho) funksiya bajaradi⁴⁰. Pretsedent nomlar asosida til tizimida yangi lisoniy birliklar ham paydo bo‘ladi, bunda mashhur onimlar turli semantik usullar bilan transformatsiyaga uchraydi va yangi leksik birliklarga aylanadi. Xalq orasida mashhurlikka erishgan va til tizimida keng qo‘llanishga o‘tgan mashhur atoqli otlar (pretsedent nomlar) ma’lum bosqichga yetgach, predmetni (obyekt, subyekt, shaxs, joy va h.k.) individuallashtirishga xizmat qila olmay qoladi, ular emotsional-ekspressiv xususiyat kasb etib, yangi mazmuniy yuk bilan boyiydi. Shu sababli ham deonimlar boshqa turdosh otlardan shartli emotsional-pragmatik komponenti mavjudligi bilan farqlanadi. Rus tilshunosi R.Xanichev deonimlashish (apellonimizatsiya) hodisasi natijasida nafaqat turdosh otlar, shuningdek, sifat, fe‘l so‘z turkumiga oid leksik birliklar hosil bo‘lishini ham ta’kidlaydi⁴¹.

Aynan Yevropa tillarida onimning apellyativga o‘tishi, fandagi kashfiyot yoki yangilikka ixtirochi nomi berilishi, onimning biror alohida belgi, ramz sifatida boshqa so‘z turkumlariga ko‘chishi, atoqli otning boshqa obyekt yoki subyektlarni nomlashga xizmat qilish holati sezilarli darajada ko‘p ekanini kuzatish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida deonimlar va deonimlashish hodisasiga onomasiologiya, leksikologiya, leksikografiya, terminologiya muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda to‘xtalib o‘tilgan, bu hodisaga aloqador mulohazalar va ularga oid misollarni uchratishimiz mumkin⁴². Taniqli terminshunos va leksikograf olim A.Madvaliyev o‘z maqolasida “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da atoqli otlar asosida yasalgan so‘zlar haqida so‘zlar ekan, “...izohli lug‘atni mutolaa qilgan, undan foydalangan kitobxonlar bir necha o‘nlab so‘z va terminlarning atoqli otlar (antroponim va toponimlar)dan hosil qilinganini bilib oladilar”, – deb ta’kidlaydi⁴³.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibidan o‘rin olgan deonimlar kuzatilsa, ularning aksariyati rus tili orqali hind-yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ekanligi oydinlashadi (*derbi, konyak, limuzin, nikotin, olimpiada*). O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari doirasida yuzaga kelgan deonimlar nisbatan kamroq (*amirkon, rizamat, yusupov, xo‘jaahrori*).

Sh.Maxmaraimovanning fikriga ko‘ra, “Ikkilamchi nominatsiya eponimizatsiyalashning ikki tomonlama jarayoni orqali amalga oshiriladi, bu esa, o‘z navbatida, tranonimizatsiya va deonimlashtirishga bo‘linadi. Tilshunoslar atoqli otlarning bir

⁴⁰ Ли Я. Коннотативная система субстантива в функциональном аспекте (на материале российских СМИ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – С. 2, 10.

⁴¹ Ханичев Р.З. Сопоставительная характеристика процессов деонимизации в русском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2004. – С. 7.

⁴² Бу haqda qarang: Мирсанов Б.М. Ўзбек тили терминологиясида иккиламчи номлашлар ва уларнинг мотивлашуви (ўзбек тили зоонимлари ва фитонимлари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри дисс. – Самарканд, 2019. – Б. 16–20.

⁴³ Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 212.

sinfdan ikkinchisiga o'tish jarayonini tranonimizatsiya deb, atoqli otlarning turdosh otlar toifasiga o'tishini esa deonimizatsiya deb tushunadilar⁴⁴”.

Yuqoridagi barcha tasniflarda ko'rsatilmagan yana bir deonimlashish jarayoni so'zlashuv doirasida ancha faol sanaladi, bunda biror brend nomi ostida ishlab chiqariladigan mahsulot turi shu mahsulotlarning umumiy nomi sifatida deonimlashadi, masalan, *tefal* (elektrchoynak), *chupachups* (obakidandon), *rollton* (tezpishar lag'mon), *ariston* (bug' qozoni), *jip* (krossover tipidagi barcha mashinalar), *akfa* (plastik rom, eshiklar) singari.

Bugun o'zbek tilida xorijiy onimlar ta'sirida paydo bo'lgan deonimlar anchagina, ularning aksariyati o'zlashish jarayonida deonim maqomida bo'lgan va deonimlashish motivi nuqtayi nazaridan dastlabki denotativ ma'nosini yo'qotgan holda, apellyativ shaklida o'zbek tiliga tayyor holda kirib kelgan bo'lsa; ba'zilar o'zbek tilining ichki ma'no xususiyatlari, so'z ijodkorligi natijasida yangi konnotatsiyalarni hosil qilgan.

Atoqli otning ko'chma ma'noda qo'llanishi referentning ijobiy yoki salbiy bahosini ifodalaydi, shuning uchun ham ular ijobiy va salbiy baho leksemalariga ajratiladi. E'tiborimizni *afandi* leksemasiga qaratamiz. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “Afandi” so'zining 6 ta ma'nosi keltiriladi: 1 *esk.* Janob, janoblar. 2 *esk.* Kishi nomiga qo'shilib, hurmat bildiradi yoki kishi nomining tarkibiy qismini tashkil etadi. 3 *esk.* O'qituvchi, muallim. 4 Afandi (Xo'ja Nasriddinning epiteti). 5 *s.t. hazil* Ishidan yanglishib, kulgili ishlar qilib yuradigan odam haqida. 6. *s.t.* Latifa, anekdot.⁴⁵ Bizningcha, *Afandi* so'zi qahramonning epiteti emas, balki qahramon ismining laqab darajasidagi uzviga aylanib ketgan. *Nasriddin Afandi* ikki komponentli onimi kontekstdan yulib olinganda va bir-biridan ajratib qo'llanganda ham onimning ma'lumlik salmog'i *Nasriddin*dan ko'ra *Afandida* ancha yuqori ekanligini kuzatamiz. *Afandi* so'zi ma'nolarining rivojlanish tadrijini kuzatsak, dastlab u o'zbek lingvomadaniyatida ma'lum ijtimoiy maqom, kishining yuqori ijtimoiy darajasini ko'rsatuvchi so'z sifatida qo'llangani; keyinchalik xalq og'zaki ijodida Xo'ja Nasriddin Afandi obrazi paydo bo'lishi va mashhurlikka erishishi, xalqqa zulm qilgan boylarga donolik bilan qarshi chiqib, kambag'al, miskinlarga homiylik qiluvchi obraz sifatida gavdalanishi xalq orasida obrazga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo'lishiga, aynan shu onim asosida esa yana ikki yangi ma'noning hosil bo'lganini ko'ramiz.

Tadqiqotda pretsedent nomlar asosida sodir bo'luvchi ikkinchi yirik so'z yasaliş usuli – **tranonimizatsiya** ham tahlilga tortildi. “Rus onomastik terminologiyasi lug'ati”ga ko'ra, biror onimning boshqa onimlar turiga o'tishiga tranonimizatsiya⁴⁶ deyiladi. Lug'atda tranonimizatsiyaning turlari sifatida transantropo-nimizatsiya (antropo-nimlarning boshqa turga ko'chishi) va transtopo-nimizatsiya (topo-nimlarning boshqa turlarga ko'chishi) shakllari keltiriladi. Tranonimizatsiya mohiyatan assotsiativlik asosidagi ikkilamchi onomastik nominatsiyadir, bu jarayonda atoqli otning tashqi (shakliy) formasi o'zgarmay, nomning denotativ-signifikativ komponenti va referentlari o'zgarishi aytiladi⁴⁷. Y.A.Karpenko tranonimizatsiya derivatsiyasida asosan

⁴⁴ Махмараймова Ш.Т. *Нозирги о'збек тили (лексикология)*. – Ташкент: Фирдавс-Шоҳ, 2021. – В. 254.

⁴⁵ О'ша асар. – В. 117.

⁴⁶ Подольская Н.В. *Словарь русской ономастической терминологии*. – М.: Наука, 1978. – С. 152.

⁴⁷ Новикова О.Н., Галецкая Т.Н. *Имена современных политиков в словообразовании: трансонимизация // Вестник Башкирского университета*. – Уфа, 2019. – Т. 24. – №1. – С. 129–134.

leksik-semantik usul yetakchilik qilishini aytib o‘tadi⁴⁸. M.V.Yakovenko atoqli otning nom sifatida bir obyektдан boshqasiga o‘tishi metafora yoki metonimiya orqali amalga oshadi, deb keltiradi⁴⁹.

Turlararo tranonimizatsiyada bir onomastik turga oid onim boshqa onomastik turga ko‘chadi. Buning yaqqol misoli sifatida *Amerika, Kolumbiya, Bermuda orollari, Navoiy viloyati, Beruniy shahrini* keltirish mumkin, bu yirik geografik obyektlar o‘z nomlarini antroponimlardan olgani barchaga ma’lum. Tranonimizatsiyaning yana bir jihati shundaki, motiv onimning birdan ortiq obyektlarni nomlash uchun asos bo‘lishi ham ancha faol hisoblanadi, masalan, antroponim asosida birdan ortiq geografik obyektlarni nomlash holatini ham ko‘p kuzatish mumkin.

Bugungi kunda o‘zbek brendlari, markalovchi nomlarda korxonalar ta’rischilari, tadbirkorlar o‘z ism, familiya yoki patronimlariga murojaat qilish holati ham sezilarli oshdi, masalan, *Murad Building, Rasulov, Ro‘zmetov, Doktor D* kabi. Deonimlashish, tranonimizatsiya hodisalari uchun nomning ijtimoiy mavqeyi muhim. Birlamchi nomlanishdan keyingi bosqichlarga ko‘tarilgan har qanday atoqli ot pretsedent nomdir, bu nomlar lingvomadaniy hamjamiyat vakillari lisoniy xotirasidan mustahkam o‘rin egallagani, shuningdek, onimning yagona obyektни nomlashga xizmat qilmay, umumni ifodalovchi turdosh otlarga, ba’zilari boshqa onomastik qatlamga xos nomlashga xizmat qilishi bilan ham dalillanadi.

Ushbu bobning **“Lingvomadaniyatshunoslikda pretsedent nomning stereotip, etalon, ramz bilan munosabati”** deb nomlangan uchinchi faslida pretsedent nomlarning etalon, ramz, onomastik stereotip bo‘lib kelishidagi lingvomadaniy xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. D.Xudoyberganovanning “Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da stereotiplar quyidagicha ta’riflanadi: “1) Lingvomadaniyatshunoslikda: predmet va vaziyatlar haqidagi turg‘unlashgan milliy-madaniy tasavvurlar va ularning tilda aks etuvchi shakllari; olam konseptual manzarasining bir qismi, kichik mental manzara; 2) Kognitiv tilshunoslikda: ijtimoiy guruhlar yoki alohida shaxslar, predmetlar haqidagi qoliqlashgan tushuncha, qarashlar; axborotni qayta ishlash shakllaridan biri”⁵⁰. Tilshunoslik doirasida etnomadaniy, ijtimoiy, gender, muloqot va nutqiy stereotiplar bilan bir qatorda onomastik stereotiplar ham o‘rganiladi. Etnostereotiplar deganda ma’lum bir etnosga mansub aksariyat kishilarning boshqa bir etnos yoki ijtimoiy jamoaga mansub kishilar haqidagi standart tasavvurlari tushuniladi.

O‘zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillari uchun *Zumrad, Qimmat, Afandi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur* singari milliy pretsedent nomlar ham o‘ziga xos stereotipik tasavvurlar shakllanishiga sabab bo‘lgan⁵¹. Xuddi shuningdek, notanish kishilarni nomlash ehtiyoji yuzaga kelgan vaqtda *Eshmat, Toshmat*; biror kishining xatti-harakatiga nisbatan qarshi munosabatni ifodalash uchun *Hoshim, Oysha xola* singari laqab yoki ismlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish odati (turli ko‘rinishdagi badiiy

⁴⁸ Bu haqda qarang: Яковенко М.В. Трансонимизация как ономастическая универсалия // *Λογος όνομαστικῆς* (Логос ономастики). – Донецк, 2009. – №1. – С. 7.

⁴⁹ Яковенко М.В. Трансонимизация как ономастическая универсалия // *Λογος όνομαστικῆς* (Логос ономастики). – Донецк, 2009. №1. – С. 7.

⁵⁰ Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B. 87.

⁵¹ Bu haqda batafsil qarang: Saydaliyeva M. Pretsedent nomlar tadqiqi yuzasidan mulohazalar // “So‘z san’ati” xalqaro jurnali / Volume 4, issue 4. – P. 36. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-4-84>

asarlarda personajga nom sifatida ham shu ismlarga murojaat qilinadi) bugun o‘zbeklar orasida keng tarqalgan **onomastik stereotiplar** sirasiga kiradi. Lekin bu nomlarni biz pretsedent nom sifatida keltira olmaymiz, sababi bu nomlar alohida individni ajratib ko‘rsatmaydi, balki vaziyat taqozosi bilan shartli ravishda nomlashga xizmat qiladi⁵².

Tilshunoslikda pretsedent birliklar to‘qnashgan muammoli nuqtalardan yana biri – **etalon**dir. “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”da etalonlar “Biror shaxs yoki narsani boshqa bir shaxs yoki narsaga qiyoslash uchun tanlangan nisbatan barqaror, milliy-etnik xususiyatga ega bo‘lgan namunaviy obraz” sifatida izohlanadi⁵³. Umuman, etalonning yuzaga kelishi ham chuqur milliy-madaniy tasavvurlarning uzoq yillar davomida shakllanishi va lingvomadaniy hamjamiyat vakillari ongida mustahkam moslashishi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Odatda, etalonlar tilda turg‘un o‘xshatishlar tarzida uchraydi, biroq olamning insonga nisbatan har qanday me‘yoriy o‘lchov tasavvuri ham etalon sanaladi. V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra, etalon shaxs yoki predmetning biror xususiyatini kundalik-madaniy tajriba va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shu jihat yetakchilik qiluvchi biror realiya – personaj, tabiiy obyekt, jismga tavsifiy obrazli almashinishidir. V.Maslova etalonlar ijtimoiy-psixologik darajada tabiat hodisalari, jamiyat, insoniyat, ularning xususiyat va sifatlari haqidagi normativ tasavvurlar sifatida namoyon bo‘lishini qayd etib, ularning tanlov va bahoga ta’sir etishini qayd etadi⁵⁴.

O‘zbek tilshunosligida pretsedent nomlarning etalon vazifasida kelishiga D.Xudoyberganova doktorlik dissertatsiyasida to‘xtalib o‘tadi. Olima o‘z dissertatsiyasida *Asqartog‘*, *bog‘i Eram*, *Gerostrat*, *Kolumb*, *Layli*, *Shirin*, *Kumush*, *Majnun*, *To‘maris*, *Alpomish*, *Furqat*, *Hotam* onimlarining etalonlik xususiyatlari badiiy asardagi namunalar orqali tahlilga tortilgan⁵⁵.

Onim etalonligining yana bir yaqqol namunasi perifraza tarkibida kelgan pretsedent nomlar bilan yuzaga chiqadi. Tasviriy ifoda tarkibidagi atoqli ot etalon bo‘lganligi uchun ham taqqoslashga asos sifatida tanlanadi. Masalan, Zomin va G‘azalkentga nisbatan “O‘zbekiston *Shveytsariyasi*”, Savitskiy nomidagi muzeyga nisbatan “Sahrodagi *Luvr*”, Forobiyga nisbatan “sharq *Arastusi*” singari tasviriy ifodalarda etalonning taqqoslanayotgan jihat bo‘yicha eng oliysi bilan bir diapazonga olib chiqilishi kuzatiladi. Bu vaziyatda milliy pretsedent nomga universal pretsedent nom etalon bo‘lib kelayotganini kuzatamiz.

Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, etalon obrazlar tanlashda har qanday lingvomadaniyat vakili o‘z jamoasiga tanish bo‘lgan aksar milliy, shuningdek, universal pretsedent birliklarga murojaat etadi. Pretsedent nomning etalon sifatida tanlanishi uning bevosita lingvomadaniy hamjamiyat vakillari kognitiv bazasidan mustahkam o‘rin egallaganligi, til vakillari shu obraz haqida yaxshi tasavvurga ega ekanliklari bilan izohlanishi mumkin.

⁵² Кирпичева О.В. Социокультурные антропонимические стереотипы (экспериментальное исследование) // Известия ВГПУ. Волгоград, 2016. – С. 129.

⁵³ Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B. 87.

⁵⁴ https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/maslova/02.php

⁵⁵ Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 140.

Lingvomadaniyatshunoslikdagi yana bir muammo **ramzlarning** pretsedent nomlarga munosabati masalasidir. Ramzlar inson tasavvuri va tafakkurining eng dastlabki hosilalaridan deyish xato bo‘lmaydi. V.Maslova ramzlarning quyidagi xususiyatlarini ajratadi: obrazlilik, motivlashganlik, mazmun kompleksliligi, ko‘pma’nolilik, ramz mazmun chegarasi yoyilib ketishi (noaniq), simvolning arxetipligi, alohida olingan madaniyatda ramzning universalligi, ularning boshqa madaniyatlardagi ramzlar bilan kesishuvi, ramzlar tizimining milliy-madaniy o‘ziga xosligi, mif va arxetipda o‘rnashganlik⁵⁶. Y.Karaulov tomonidan pretsedent matn muammosi tadqiqida ham pretsedent nomlarning ramziylik xususiyatiga e‘tibor qaratilgan⁵⁷.

Ramzlar asosida obraz yotadi. Ramzlar obraz asosida yuzaga keladi, ya’ni har qanday ramz – obraz, biroq obrazni ramz sifatida qabul qilish uchun ma’lum cheklov va mezonlar mavjud. Sh.Maxmaraimovaning qayd etishicha, “ramz – moddiy narsalar va jarayonlarning belgi yoki obraz tarzida ifodalangan ideal mazmuni. Ramzning mohiyatini formal mantiq doirasida aniq ta’riflash mumkin emas. U idrok etuvchi subyektning faoliyatiga mo‘ljallangan serma’no tizimdir. Ramziy faoliyat inson ongiga xos... Ramzning ma’nosi faqat odamlar muloqoti doirasida amalda mavjud bo‘ladi... Ramz strukturasi o‘zi ayrim hodisa orqali dunyoning yaxlit obrazini tavsiflashga qaratilgandir.”⁵⁸

O‘zbek tilshunosligida atoqli otlar, xususan, pretsedent nomlarning ramz sifatida kelishi bilan bog‘liq ilmiy qarashlar D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning ishlarida kuzatiladi. D.Xudoyberganova ramziylik atoqli otning pretsedentlik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy jihat ekanligini e’tirof etadi⁵⁹. Atoqli otning stereotip, etalon va ramzlar tizimidan joy egallashi aynan shu nomning pretsedentga aylanganini ko‘rsatadi. Pretsedentlik lingvomadaniy hamjamiyat vakillari lisoniy xotirasidan mustahkam o‘rin egallaganlik va diskursda qayta-qayta jonlanish xususiyati bilan ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda ushbu fikrlar *Humo*, *Hotam* pretsedent nomlari tahlili asosida dalillandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pretsedent nomlarning o‘zbek lisoniy ongida tutgan o‘rni (assotsiativ xususiyatlar asosida)**” deb nomlangan.

Uchinchi bobning “*Pretsedent nomlar tadqiqida assotsiativ tajribalarning qo‘llanishi*” deb nomlangan birinchi faslida pretsedent nomlarning assotsiativ xususiyatlari haqida fikr yuritilgan, shuningdek, o‘zbek tilida pretsedent nomlarning psixolingvistik xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan assotsiativ tajriba tamoyillari va tartibi to‘g‘risida axborot berilgan. Rus millatiga mansub kishilarning kognitiv bazasidagi pretsedent nomlar bilan bog‘liq dastlabki assotsiativ xususiyatlar D.B.Gudkov, V.V.Krasnix va I.V.Zaxarenkolar tomonidan o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari asosida tadqiq qilindi. O‘zbek tili sohiblarining pretsedent nomlarga aloqador assotsiatsiyalarini o‘rganishda dunyo tilshunosligi doirasida D.Gudkov, V.Krasnix,

⁵⁶ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 76 с.

⁵⁷ Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. – М.: Ленанд, 2020. – С.102.

⁵⁸ Махмараймова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида метафора: Монография. – Тошкент: Нодирабегим, 2019. – Б. 80–81.

⁵⁹ Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 133.

L.Kuzmenko, S.Xvatova, V.Janayeva, V.Latisheva, X.Xadi, B.Pseunova; o‘zbek tilshunosligi doirasida esa D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, B.Tajiboyev⁶⁰ va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlaridan nazariy manba sifatida foydalanildi, tajribani tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy va amaliy vazifalarni belgilash yuqorida keltirilgan ishlar asosida amalga oshirildi. Tajribada erkin assotsiativ tajriba usuli tanlandi. Anketada turtki pretsedent nomlar sifatida 90 ta pretsedent nom va eponimlar tanlandi: *Abdulla Oripov, Afandi, Afrosiyob, Ali, Alpomish, al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Amir Temur, Arastu, Asadbek, Avgust, Ayyub, Azroil, Barbi, Barchin, Bill Geys, Bobur, Boychibor, Buratino, Buxoro, Dezdemona, Dizel, Don Juan, Don Kixot, Eynshteyn, Eyfel, Farmonbibi, Farhod, Gamlet, Gerakl, Gitler, Hotam(toy), Humo, Ibn Sino, Injil, Iskandar, Iso, Jaloliddin Manguberdi, Jahongir Ortiqxo‘jayev, Jeki Chan, Jeys Bond, Jip, Julyetta, Ka‘ba, Kleopatra, Kolumb, Koshchey, Kumush, Layli, Limuzin, Majnun, Muhammad, Namangan, Napoleon, Navoiy, Nobel, Nyuton, Odam Ato, Otabek, Otello, Parij, Pushkin, Qimmat, Qodiriy, Qorabotir, Qur‘on, Rentgen, Romeo, Samarqand, Sotti, Sulaymon, Tefal, Tesla, Tohir, Toshkent, To‘maris, Ulug‘bek, Xuligan, Xiva, Yago, Zomin, Zuhra, Zulfiya, Zumrad, O‘zbekoyim, Shekspir, Shirin, Shiroq, Shoahmad Shomahmudov, Cho‘lpon*. Turtki so‘zlar o‘zbeklarga yaxshi tanish va mashhur tarixiy, afsonaviy yoki zamonaviy shaxslar hamda joy nomlari; badiiy asar yoki ekranlashtirilgan obraz, personaj va ularning ijrochilari; biror kashfiyot yoki tushunchalar bilan bog‘langan kishilarning ismi va brend nomlaridan iborat. Ularni tanlashda qat‘iy mezon sifatida uch omil inobatga olindi: avvalo, nomning mashhurligi; ikkilamchi, nomning o‘ziga aloqador pretsedent birliklar bilan bog‘liq assotsiativalarni tiklash ehtimoli; apellyativlik kasb etgan atoqli otlarda so‘z asosida onimning mavjudligini bilish darajasini aniqlash.

So‘rovnomada jami 112 sinaluvchi ishtirok etdi. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida tahsil oluvchi 48 nafar 3-bosqich talabalari bilan 2022-yil 29-noyabrda, O‘zbekiston milliy universitetining 23 nafar 1-bosqich talabalari bilan 2022-yil 29-iyunda, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 25 nafar 4-bosqich talabalari bilan 2022-yil 21-iyunda hamda 16 nafar ko‘ngilli filolog va jurnalist mutaxassislar bilan 2022-yil 1-dekabrda tajribalar o‘tkazildi. Jami sinaluvchilarning 30 nafari erkaklardan va 82 nafari ayol-qizlardan iborat. Sinaluvchilar yoshga ko‘ra 18–25 yosh oralig‘ida 96 nafar (85.72%), 26–34 yosh oralig‘ida 8 nafar (7.14%), 35 va undan yuqori yoshdagilar ham 8 nafar (7.14%) sinaluvchilarni tashkil etdi. O‘tkazilgan tajribaga muvofiq jami 90 turtki so‘zga jami 9705 ta reaksiya to‘plandi, 375 ta holatda sinaluvchilardan javob reaksiyalari olinmagan.

Bobning **“Milliy pretsedent nomlarning assotsiativ xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi faslida o‘zbek tili sohiblarining lisoniy ongida milliy pretsedent nomlar ortida turgan bilimlar tizimi hamda ularning tafakkurida onimning qanday lisoniy birliklarni javob reaksiyasi sifatida aks ettirishi, kishilarning emotsional-hissiy bahosini ifodalashdagi o‘rni, shuningdek, alohida shaxslarning onimlarga subyektiv munosabati singari qator obyektiv axborotlarni taqdim etishi tahlil qilindi. O‘zbek tili sohiblari

⁶⁰ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Мериус, 2017. – 140 б.; Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 332 b.; Tojiboyev B. O‘zbek tilida so‘zning assotsiativ ma‘no strukturasi. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2021. – 108 b.; Худайберганова Д.С. Ko‘rsatilgan dissertatsiya.

orasida milliy qadriyat darajasiga ega nomlar bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni aniqlash maqsadida 46 ta milliy pretsedent nom tanlandi.

Alpomish pretsedent nomining assotsiativ maydoni yadrosidan *doston* – 24, *o‘zbek xalq dostoni qahramoni* – 12, *doston qahramoni* – 8, *qahramon* – 8, *mard yigit* – 5, *mardlik timsoli* – 5, *Barchinoy* – 5, *o‘zbek o‘g‘loni* – 4, *milliy qahramon* – 4, *alpqomat yigit* – 3, *Hakimbek* – 3, *Boychibor* – 3, *er yigit* – 2, *xalq og‘zaki ijodi* – 2, *xalq qahramoni* – 2, *o‘zbek xalq dostoni* – 2, *Boysun-Qo‘ng‘irot* – 2, *polvon* – 2 reaksiyalari; yaqin chegara qismidan *xalq dostonining bosh qahramoni*, *Barchinning yori*, *Qaldirg‘ochning akasi*, *ishqiy-qahramonlik dostoni*, *afsonaviy qahramon*, *kino*, *turkiylarning mashhur qahramoni*, *o‘q va yoy*, *folklorshunoslik obyekti* assotsiatsiyalari; uzoq chegara qismidan *jasorat*, *pahlavon o‘g‘lon*, *mard va jasurlik timsoli*, *qahramonlik timsoli*, *sarkarda*, *o‘zbek ideali*, *to‘qima xalq qahramoni* assotsiatsiyalari o‘rin oldi.

Quyida ko‘p sonli sinaluvchilar ustida o‘kazilgan tajriba natijalari asosida *Alpomish* onimining assotsiativ maydonini tahlil qilamiz. Javob reaksiyalari 50 o‘rinda so‘z va 62 o‘rinda so‘z birikmasi shaklida kelgan. Assotsiativ maydonning barcha birliklari “*Alpomish*” turtki so‘zi bilan mantiqan bog‘langanligini nomning sinaluvchilarga yaxshi tanish ekanligi bilan izohlash mumkin. *Doston*, *o‘zbek xalq dostoni qahramoni*, *doston qahramoni*, *qahramon*, *xalq og‘zaki ijodi*, *o‘zbek xalq dostoni*, *xalq dostonining bosh qahramoni*, *ishqiy-qahramonlik dostoni*, *to‘qima xalq qahramoni* kabi javob reaksiyalari o‘zbek xalq eposi “*Alpomish*” dostoniga ishora qilishi orqali pretsedent matnga; doston matnida uchraydigan *Barchinoy*, *Hakimbek*, *Boychibor*, *Boysun-Qo‘ng‘irot*, *Qaldirg‘ochning akasi* onomastik birliklari orqali boshqa pretsedent nomlarga ishora borligi kuzatildi. Bu javob reaksiyalari pretsedent nomning pretsedent birliklarning markaziy unsuri ekanligi, til sohiblarining kognitiv bazasida nom orqali katta hajmli axborot majmuyi turishi, bu o‘rinda aynan nom mexanizmi ishga tushiruvchi qurilma vazifasini bajarganini kuzatishimiz mumkin. Assotsiativ maydonda pretsedent vaziyat bilan bog‘liq assotsiatsiyalar ancha passiv. Faqatgina *o‘q va yoy* assotsiatsiyasi pretsedent vaziyatga ishora qiladi.

Shuningdek, bu faslda oshiq va ma‘shuqa juftligini hosil qilgan pretsedent nomlar (*Alpomish–Barchin*, *Layli–Majnun*, *Otabek–Kumush*, *Tohir–Zuhra*, *Farhod–Shirin*)ning javob reaksiyalari tahlili juftliklarda o‘z juftiga doir assotsiatsiya uyg‘otish darajalari turlicha bo‘lishi haqida ham fikr yuritildi. Pretsedent nomlarni turli matnlarda qo‘llash chog‘ida aksariyat ular o‘z jufti bilan birgalikda doimiy juft ishlatilishi, bu nomlar ishtirok etgan pretsedent matn ham ko‘pincha qahramonlarning nomi bilan berilishi (ertak va dostonlarda), shuningdek, bu nomlar etalonlik yoki ramziylik xususiyatiga egaligi ularning sinaluvchilar kognitiv bazasida o‘zaro bog‘langan holda saqlanishiga sabab bo‘ladi.

Pretsedent nomni matn yoki kontekstdan ajratib olish, komponentlarini to‘liq bo‘lmagan holda berish uning pretsedentlik xususiyati pasayishiga va nom ortida turgan bilimlarning reaksiya sifatida yuzaga chiqishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi – ushbu nomning turdosh otlar bilan omonimligiga, shuningdek, pretsedent nom bilan boshqa otdosh onomastik birliklar hamda transonimizatsiyaga uchragan boshqa pretsedent nomlarga oid assotsiatsiyalar yuzaga kelishiga ham olib keladi. Masalan, *Ulug‘bek*, *Jahongir Ortiqxo‘jayev*, *Tohir* pretsedent nomlarining assotsiativ maydonida bu nomlarning zamonaviy otdoshlariga taalluqli assotsiatsiyalarni kuzatish mumkin. Bunda

sinaluvchilarda ko‘pincha pretsedent nomning tashqi funksional jihati, ya‘ni onimlardagi shakliy o‘xshashlik asosida reaksiya kuzatilganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, *Zumrad*, *Zuhra* hamda *Kumush* nomlarida ham atoqli individual nomdan tashqari predmet hamda belgini bildiruvchi assotsiatsiyalar hosil bo‘lgani kuzatildi. *Shoahmad Shomahmudov* pretsedent nomi tanilish darajasi eng past milliy pretsedent nom bo‘lib, 47 nafar sinaluvchida (42,3%) reaksiya kuzatilmaganligi bilan ajralib turdi. Dissertatsiyada bunday past ko‘rsatkichga sabab bo‘lgan omillarga e‘tibor qaratildi. Shuningdek, filolog mutaxassislarning javoblarida *olim*, *maqol bo‘yicha tadqiqot*, *maqollar* reaksiyalari kuzatildi. Bunda ularning usta Shoahmad Shomahmudovni o‘zlariga yaxshi tanish folklorshunos olimlar, maqollar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Sh.Shomaqsudov hamda Sh.Shorahmedovlarga adashtirganliklarini ko‘ramiz. Bu holat har bir sohaning tor doirada qo‘llanadigan o‘z pretsedent nomlari, ya‘ni ijtimoiy pretsedent nomlari bo‘lishini ham dalillaydi.

Sinaluvchilarda o‘tkazilgan tajriba natijalari tahlili milliy pretsedent nomlar o‘zbek tili sohiblarining kognitiv bazasida milliy-madaniy qadriyat sifatida mavjudligi, o‘zida millatning tarixi va madaniyatiga aloqador bilimlarni aks ettirishi, milliy qiyofa va xarakterni ifodalashda birlamchi asos bo‘lib kelishini ko‘rsatadi.

Bobning uchinchi fasli **“Universal pretsedent nomlarning assotsiativ xususiyatlari”** deb nomlangan. Ushbu faslda o‘zbek tili sohiblari orasida 44 ta universal pretsedent nomlar bilan aloqador assotsiatsiyalari kuzatildi. *Ali*, *Ayyub*, *Azroil*, *Iso*, *Injil*, *Ka‘ba*, *Muhammad*, *Odam Ato*, *Qur‘on*, *Sulaymon* singari pretsedent nomlar milliy pretsedent nomdan ko‘ra globalroq ko‘lamga ega ekanligini inobatga olib, universal pretsedent nomlar sifatida ushbu faslda tahlil qilish o‘rinli bo‘ladi, degan fikrga keldik. Bu nomlar diniy matnlarga xos teonim, bibliotim, toponim, mifonimlar bo‘lib, o‘zbek lingvomadaniy hamjamiyati vakillariga milliy pretsedent nomlardan keyin universal pretsedent nomlarga nisbatan tanishlik darajasi balandligi bilan ahamiyatlidir.

Diniy matnlarga xos bu nomlarning tashqi shakliy xususiyati asosida hosil bo‘lgan assotsiatsiyalar ham kuzatiladi. *Ayyub*, *Ali* r.a., *Sulaymon* pretsedent nomlarida boshqa otdosh shaxslarga oid assotsiatsiyalar ham kuzatildi. Ko‘rinadiki, assotsiativ tajribada pretsedent nomga taalluqli atoqli ot komponentlari to‘liq berilmasligi (yuqoridagi o‘rinlarda ularning payg‘ambar yoki sahobalardan ekanliklariga ishora qiluvchi “alayhissalom” yoki “roziallohu anhu” birikmalari singari) sinaluvchilarning uning markaziy xususiyatlaridan uzoqlashishiga, nomning tashqi alomatlariga e‘tibor ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. E‘tiqod hamda din butun insoniyat tarixining dastlabki, ajralmas va muhim bo‘lagi sanalganligi sababli ham diniy mazmunga ega bunday birliklar kishilar ongida mustahkam o‘rin egallashi, ularning xatti-harakatlari, xulq-atvori, qadriyatlari, dunyoqarashi shakllanishi va h.k.larda eng kuchli va chuqur ta‘sir o‘tkazish xususiyati borligi bilan boshqa turdagi informativ matnlarga nisbatan qimmatliroq sanaladi.

Azroil pretsedent nomining tanilish darajasi 100%ni tashkil etib, sinaluvchilarning barchasida javob reaksiyalari kuzatildi. Pretsedent nomning boshqa pretsedent birliklar bilan aloqador assotsiatsiyalari sezilarli darajada passiv. Sinaluvchilarda past chastotali *Alloh tomonidan qazoga mas‘ul qilingan* assotsiatsiyasi tarkibida *Alloh* pretsedent nomiga ishora borligini kuzatishimiz mumkin. *Azroil* pretsedent nomiga taalluqli assotsiatsiyalarda “qayg‘uli” mazmuniy maydonga tegishli javob reaksiyalari yaqqol ustunlik qiladi. “Qayg‘uli” mazmuniy maydonga oid assotsiativ birliklar depressiv

xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi, ular asosan *jon oluvchi farishta, jon oluvchi, o'lim, o'lim farishtasi, islomda jon oluvchi farishtaning ismi, Alloh tomonidan qazoga mas'ul qilingan, dahshat, o'lim xabarchisi, jismimizdan ruhimizni oluvchi, "O'lim asli go'zaldir"* she'ri kabi assotsiatsiyalar atrofida birlashgan. Bunday semantik komponentli tipdagi reaksiyalarda yolg'izlik, gunoh, azob, sovuq, sukunat, jazo semalariga ega javoblar kuzatilmadi. Diniy mazmundagi matnlarda "qorong'u" mazmuniy maydonga oid assotsiatsiyalar dushman, ya'ni shayton va jinlar xavfi, ularning fitnalari hamda ular bilan ayovsiz kurashish lozimligiga ishora qiladi. Bunday birliklar avvalo ekspressiv-emotsionalligi bilan ajralib turadi, ko'p hollarda keskin va agressiv ifoda vositalari orqali ifodalanadi. *Azroil* turtki so'ziga quyidagi "qorong'u" mazmuniy maydonga oid javob reaksiyalari olingan: *qorong'ulik, oxirgi yo'l, oxirgi manzil, umr yakuni, oxirgi manzilga kuzatuvchi, badjahl, dahshat, qabr*. Shuningdek, "qorong'u" mazmuniy maydonga oid birliklar orasida jahannam, shayton va uning fitnalari, qiyanoq va azob, gunoh va gunohkorlar, qiyomat, olov semalariga ega birliklar ham assotsiatsiya sifatida kuzatilmadi.

Ka'ba pretsedent nomining o'zbek tili sohiblari tomonidan tanilish darajasi yuqori bo'lib (100%), *Allohning uyi* reaksiyasi assotsiativ maydon yadrosining markazida turadi. Diniy "yorqin" mazmuniy maydonga ega assotsiativ birliklarda emotsional ko'tarinkilik seziladi. Bu holat *Ka'ba* pretsedent nomiga olingan ayrim javob reaksiyalarida kuzatildi: *muqaddas joy, muqaddas, musulmonlarning muqaddas joyi, orzu, jannat, islom dunyosining muqaddas maskani, halovat, muqaddas sajdagoh, qalbgga sakinat inadigan yer, Allohning bizga tuhfasini*. Sinaluvchilarning javoblarida "yorqin" mazmuniy maydonga ega birliklarida muqaddas semasi katta ustunlik qildi, shuningdek, *sakinat, halovat, orzu, jannat* kabi birliklar ham "yorqin" mazmuniy maydonga oid assotsiatsiyalar safidan o'rin oldi. Rohat, saodat, yorug'lik, nur, ezgulik, mazmuniy maydonga ega birliklar esa javob reaksiyalari sifatida qayd etilmadi. "Go'zal" mazmuniy maydonga oid assotsiativ birliklarda esa asosan sinaluvchilarda turtki so'zning tashqi qiyofasiga nisbatan moyillik ko'rinishida namoyon bo'ladi. *Ka'ba* pretsedent nomining assotsiativ maydonida go'zal semantik komponentga ega birliklar nisbatan kam kuzatildi: *yer yuzidagi eng go'zal joy, ulug'*.

O'zbek tili sohiblari orasida **universal pretsedent nomlarning** tanilish darajalari ham turlicha va ular milliy pretsedent nomlarga nisbatan pastroq ekanligi bilan ajralib turadi. Tanilish darajasi 100 foizni tashkil etgan turtki so'zlarga *Avgust, Buratino, Gitler, Julyetta, Jeki Chan, Limuzin, Nobel, Nyuton, Parij, Pushkin, Romeo, Tefal, Tesla, Shekspir* onimlarini kiritamiz. Tanilish darajasi eng past birliklarga *Don Juan* (57.6%), *Koshchey* (66.6%), *Yago* (68.4%) onimlarini kiritish mumkin. Universal pretsedent nomlar orasida "oshiq va ma'shuqa" juftliklarida *Romeo* va *Julyetta* juftliklarida *Romeo* turtki so'zida assotsiativ maydon yadrosining markazi *Julyetta* turtki so'ziga nisbatan yuqori chastotaviylik xususiyatiga egaligi anglashiladi. *Julyetta* pretsedent nomida esa bu ko'rsatkich birmuncha pastroq natijaga ega. *Otello* va *Dezdemon*a turtki so'zlarida birinchi komponent bo'lgan *Otello* nomiga berilgan javob reaksiyalarida *Dezdemon*a nomi assotsiativ maydon yadrosining markazida turgan bo'lsa, *Dezdemon*a turtki so'zida assotsiativ maydon yadrosining markazini *ro'molcha* javob reaksiyasi egallagan. Demak, o'zbek tili sohiblari lisoniy xotirasida bu onimlar "oshiq va ma'shuqa" etaloni darajasida ko'rilmaydi.

Pretsedent nomlar orasida *avgust, dizel, donjuan, jip, limuzin, xuligan, tefal* singari deonimlar ham berilgan. Pretsedent nomlar doirasida deonimlar assotsiativ maydonini o'rganish til sohiblarining kognitiv bazasida apellyativga aylangan leksik birliklarning motivlaridan qay darajada xabardorligini aniqlash uchun o'tkazildi. *Avgust* so'zining yadrosi markazida ushbu so'zni oy nomi sifatida tushunish turganini kuzatsak-da, assotsiativ maydonda uni deonimga xoslovchi motiv asosidagi tasavvurlar ham mavjud ekanligini kuzatamiz: *Rim imperatori, Oktavian Avgust, Rimga hukmron bo'lgan, Oktavian Avgust – mashhur Rim sarkardasi, tarixiy shaxs, Rim, yunon fotihi. Tefal* brend nomiga aloqador assotsiatsiyalarda ham shunga o'xshash holat ko'zga tashlanadi. Bu brend O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar bozoriga dastlab ommalashgan mahsulot sifatida elektrchoynaklarni olib kiradi. Bu holat brend nomining assotsiativ maydonida ham o'z ifodasini topganini kuzatamiz: assotsiativ maydon markazi *elektrchoynak* (26), undan keyingi yuqori chastotaviy assotsiativ birlik esa *suvqaynatkich* (16). *Maishiy texnika – 2, brend, elektr jihoz* assotsiatsiyalarini (4 ta javob reaksiyalarida, assotsiativ maydonning 3.6%i) shartli ravishda brend nomiga aloqador nomlar deb olish mumkin.

Donjuan turtki so'zi esa universal deonimlar orasida tanilish darajasi eng past bo'lgan birlik hisoblanadi (48 nafar sinaluvchidan natija olinmagan). 7 nafar sinaluvchi *Don Juanning* o'zbeklarga yaxshi tanish milliy prototip modeli *O'tkuriy* obrazi bilan aloqador ekanligini qayd etadilar.

Yuqoridagi javob reaksiyalaridan ko'rinadiki, o'zbek tili sohiblari avvalo milliy hamda islom madaniyatiga oid universal pretsedent nomlarni yaxshi taniganlar. Yevropa madaniyatiga oid universal pretsedent nomlarning tanilish darajasi milliy va islom madaniyatiga oid universal pretsedent nomlarga nisbatan pastligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

O'zbek tilidagi pretsedent nomlarning lingvistik tadqiqi quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Pretsedent nomlar haqidagi ilmiy qarashlar zamonaviy tilshunoslikda nisbatan yangi hodisa bo'lishiga qaramay, bugun bu birliklar tadqiqi eng dolzarb masalalar sirasida turibdi. Pretsedent nomlar pretsedent vaziyat, pretsedent matn va pretsedent jumlar orasida eng ko'p tarqalgan va keng o'rganilgan pretsedent birlik hisoblanadi. Pretsedent nomlar – ma'lum til sohiblarining kognitiv bazasida mustahkam o'rin egallagan, diskursda faol qo'llanuvchi, mashhur vaziyat, jumla yoki matnlarga ishora qiluvchi, ramziy ma'no kasb etish xususiyatiga ega bo'lgan, hissiy ifoda vositasi o'laroq ahamiyatli bo'lgan, o'z ortida katta ensiklopedik bilimlarni saqlovchi mashhur individual nomlardir. Har qanday millatning uzoq-yaqin o'tmishida butun xalqqa tanilgan mashhur shaxslari, afsonaviy xalq qahramonlari, e'tiborga molik joy va manzilgohlari, badiiy asarlarning mashhur qahramonlari ana shu lingvomadaniy hamjamiyatning lisoniy xotirasida turli assotsiatsiyalar bilan bog'liq tarzda pretsedent nom sifatida saqlanib turadi.

2. Pretsedent nomlar ma'lum bir xalqning madaniyati, tarixi, an'analari haqida boshqa etnos vakillariga axborot beruvchi eng birlamchi vositalardan biridir, shunga ko'ra ular tillararo, madaniyatlararo ko'prik vazifasini o'taydi. Bir pretsedent nomga turli madaniyat va til vakillari o'zlariga xos milliy, madaniy, ijtimoiy tamoyillar (olamni

anglash tarzi, bilimi, madaniyati, e'tiqodi, qadriyatlari, tabu, stereotiplar va hokazolar) asosida baho berishi tabiiy holat bo'lib, ular o'zaro farqlanishi mumkin. Tilni o'rganishda uning onomastik birliklari bilan aloqador stereotiplarni ham bilish tilni o'zlashtirish omili sifatida baholanishi mumkin.

3. Pretsedent nomlar ijtimoiy-madaniy belgisiga ko'ra *milliy, universal, ijtimoiy* va *avtopretsedent* turlarga ajraladi. Shulardan avtopretsedent (yakka shaxslarning hayotida muhim o'rin tutgan shaxslar bilan bog'liq bo'lgan va hech kimnikiga o'xshamagan, takrorlanmas assotsiatsiyalari) va ijtimoiy (tor doiradagi ijtimoiy qatlamlar, masalan, talabalar, sotuvchilar, dehqonlar, hunarmandlar, olimlar, shifokorlar singari ijtimoiy guruh vakillarigagina yaxshi tanish bo'lgan pretsedentlar) pretsedent nomlar xususiy hodisa hisoblanadi. *Milliy* va *universal pretsedent nomlar* umumiy til hodisasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Pretsedent nomlar o'zlari bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy davr, voqelik va vaziyatning, matnning markaziy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Pretsedent nomlar fondi doimiy o'zgarib, yangi mashhur nomlar bilan boyib boradi. Ularning davriyligi boshqa pretsedent birliklar singari doimiy yoki qisqa muddatli bo'lishi mumkin.

5. Pretsedent nomlar o'zlarining semantik sinonimi bo'lgan perifrazalari bilan uzviy bog'liqdir. Pretsedent nomga oid perifraza pretsedent jumla sanaladi.

6. Atoqli otlar deonimlashganda, alohida subyekt yoki obyektgagina xos bo'lgan jihatlar shu singari tashqi, funksional xususiyat va sifatlarga ega boshqa birliklarni umumlashtirib nomlashga xizmat qila boshlaydi. Ba'zida til sohiblarining kognitiv bazasida deonimlarning asosini tashkil etgan onim to'g'risidagi bilimlar mavjud bo'lmasa-da, so'zning shakliy tomoni orqali u qaysi tildan kirib kelganini aniqlash mumkin bo'ladi.

7. Transonimizatsiya mohiyatan assotsiativlik asosidagi ikkilamchi onomastik nominatsiyadir, bu jarayonda atoqli otning tashqi strukturasi o'zgarmay, nomning denotativ-signifikativ komponenti va referentlari o'zgarishi mumkin.

8. Onomastik stereotip va pretsedent nom hodisalari o'zaro farqlidir. Stereotiplar ortida yagona subyekt mavjud bo'lmaydi, ularga tipiklik xos. Til sohiblari pretsedent nomning o'zi aloqador bo'lgan boshqa pretsedent birliklar bilan bog'liq jihatlarini unutishi ko'pincha nomning pretsedentlik xususiyatini yo'qotib, onomastik stereotipga aylanishiga sabab bo'ladi.

9. Muayyan nomning bir millat madaniyatida ayni bir turdagi sifatlarning etaloni bo'lib kelishi shu nomning pretsedentligidan dalolatdir. Pretsedent nom ramz bo'lib kelganda, majoziylik xususiyati yetakchilik qiladi.

10. Til sohiblarining kognitiv bazasida yuqori informativlik asosan milliy va madaniy pretsedent nomlar hisobiga to'g'ri keladi. Pretsedent nomlar lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining lisoniy xotirasida unga aloqador lingvistik va nolisoniy ma'lumotlarni, shuningdek, subyektga nisbatan shaxsiy emotsional-hissiy munosabatini ham assotsiatsiya sifatida saqlaydi.

11. Pretsedent nomning tanilishida u qatnashgan yoki unga aloqador pretsedent matn, pretsedent jumla va pretsedent vaziyat muhim omil hisoblanadi. Nomning tanilmasligi kishilar xotirasida mavjud axborotning assotsiatsiya sifatida tiklanmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Pretsedent nomning diskursda faollik darajasi ham bu borada

ahamiyatlidir. Pretsedent nomning tanilmasligi ko‘pincha uni boshqa ohangdosh pretsedent nomlar bilan adashtirilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

12. Pretsedent nomni matn yoki kontekstdan ajratib olish, uning komponentlarini to‘liq bo‘lmagan holda berish uning pretsedentlik xususiyati pasayishiga va nom ortida turgan bilimlarning reaksiya sifatida yuzaga chiqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, ЛИТЕРАТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА**

ИНСТИТУТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, ЛИТЕРАТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА

САЙДАЛИЕВА МУХЛИСАХОН БАХТИЁР КИЗИ

**ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ИМЁН
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
доктора философии по филологическим наукам (PhD)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована за номером В2023.4.PhD/Fil1089 Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Институте узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трёх (узбекский, английский, русский (резюме)) языках размещён на веб-странице Института узбекского языка, литературы и фольклора по адресу www.tai.uz и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" по адресу www.ziyounet.uz.

Научный руководитель: Худайбергана Дурдона Сидиковна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Маматов Абди Эшонкулович
доктор филологических наук, профессор

Сапарниязова Муяссар
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация: Университет узбекского языка
и литературы имени Алишера Навои

Защита диссертации состоится "5" марта 2025 года в 14.00 часов на заседании Научного совета DSc 02/30.12.2019.Fil.46.03 по присуждению учёных степеней при Институте узбекского языка, литературы Академии наук Республики Узбекистан. (Адрес: 100060, г. Ташкент, проезд Шахрисабзский, 5. Тел: (871) 233-36-50; Факс: (871) 233-71-44; э-почта: uztafi@academy.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Фундаментальной библиотеке Академии наук Республики Узбекистан (Зарегистрирован за номером 12). (Адрес: 100100, г. Ташкент, улица Зиёлилар. 13. Тел: (99871) 262-74-58)

Автореферат диссертации разослан "19" февраля 2025 года.

(Протокол реестра рассылки за номером 2 "19" февраля 2025 года.



Н.М. Махмудов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.ф.н., профессор

А.М. Хасанов
Секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.ф.по фил.н. (PhD)

Ё.Р. Одилов
Заместитель председателя Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. Благодаря формированию и развитию антропоцентрической парадигмы в мировом языкознании большое внимание стали уделять социокультурным особенностям языковых единиц. Это, в свою очередь, способствовало появлению новых научных взглядов, направленных на изучение прецедентных единиц. На сегодняшний день прецедентность и прецедентные единицы, в частности прецедентные имена, широко исследуются в гуманитарных науках; связанные с ними исследования проводятся в различных направлениях современной лингвистики. Прецедентные имена считаются важной единицей языкового фонда благодаря способности отражать национально-культурные особенности и ценности каждого народа, масштабности эмоционального воздействия, являются средством лаконичной и экспрессивной передачи мысли, способны хранить в себе большой объём информации.

В мировой лингвистике помимо номинативной функции прецедентных единиц изучаются также лингвистические и экстралингвистические явления, связанные с их реализацией в текстах различных стилей и речевых ситуациях, роль этих единиц в коммуникации людей разных национальностей и в языковой памяти носителей национального лингвокультурного сообщества. В частности, особое внимание уделяется значению прецедентных единиц как лингвокультурных единиц, их функциям в публицистических (медиадискурс), политических, религиозных, рекламных текстах, роли последних в лингвопоэтике произведений определённых писателей. Сегодня в мировой лингвистике прецедентные единицы, в частности прецедентные имена наряду с отдельными разделами лингвистики, такими как ономастика, лексикология, синтаксис, также изучаются в перекрёстных направлениях – социолингвистики, лингвопоэтики, лингвокультурологии, когнитивном и прагматическом языкознании, психолингвистике, ассоциативной лингвистике, лингвострановедении.

Широкомасштабные реформы, проводимые в стране после обретения независимости в области науки, а также повышения статуса узбекского языка как государственного, ряд принятых указов и решений ставят перед национальным языкознанием задачу проведения глубоких исследований, направленных на решение актуальных вопросов в изучении узбекского языка, увеличения количества современных фундаментальных исследований в условиях современной глобализации.

Проблема “кардинального повышения авторитета узбекского языка в общественной жизни нашего народа и на международной арене, воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма, преданности национальным традициям и ценностям”¹ ставит перед узбекским языкознанием задачу более

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране” от 20 октября 2020 года. Источник: <https://lex.uz/docs/5058351>

тщательного изучения национальных прецедентных имён, являющихся национально-культурными единицами узбекского языка. Несмотря на определённую степень изученности в узбекском языкознании роли прецедентных имен в создании художественного текста в рамках монографических и диссертационных работ, целесообразным является проведение более тщательного лингвистического анализа, фокусирование внимания на ряде антропоцентрических признаков, непосредственно связанных с носителем языка, таких как лингвокультурные, психолингвистические, социолингвистические, увеличение специальных исследований, посвященных проблеме роли этих имён в языковом сознании представителей узбекского лингвокультурного сообщества. Это свидетельствует об актуальности темы данной диссертационной работы.

Данная диссертация в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, от 17 февраля 2017 года УП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности”, от 21 октября 2019 года УП-5850 “О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка”; от 20 октября 2020 года УП-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране”, а также других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информатизированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В последние годы одной из актуальных тем исследований мировых филологов стала проблема прецедентных имён, а первое исследование данной проблемы связана с именем Ю.Н. Караулова². Ю. Нахимова, З.К. Ахметжанова, В.И. Зимин, В.Л. Латишева, В.Я. Арбузова, А.В. Терещенко, Ю.А. Флейшер изучали прецедентные имена с различных аспектов³. Отдельного внимания

² Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 216 с.; Shu muallif. Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – 263 с.

